



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 170 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	



YANGI O'ZBEKISTONDA TALABA-YOSHLARNI MILLIY YUKSALTIRISHDA JADID- MARIFATPARVARLARI ILGARI SURGAN G'OYALARNING O'RNINI VA ROLI



Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-ma'rifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rnini va roli hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada jadidlar davridagi milliy yuksalish, milliy o'zlikni saqlash hamda xalqning o'zligini anglashiga doir olib borgan ishlari, ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga A. Avloniy, M. Behbudi, A. Fitrat kabi jadidchilik namoyandalari asarlarida milliy qadriyatlarni ulug'lash, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini targ'ib etish hamda ijtimoiy fikrni jonlantirish borasidagi faoliyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, qadriyatlar, milliy yuksalish, "Oyina" jurnali, jadidlar harakati, "Munozara".

Abstract: This article discusses the place and role of the ideas advanced by Jadid enlighteners in promoting the national uplift of students and youth in New Uzbekistan. The article also analyzes the activities of the Jadids during the period of national awakening, focusing on the preservation of national identity and the development of public awareness, as well as their socio-political and cultural initiatives. In addition, the works of such representatives of Jadidism as A. Avloni, M. Behbudi, and A. Fitrat are examined, highlighting their efforts to promote national values, popularize the achievements of modern science, and stimulate social thought.

Key words: national identity, values, national uplift, "Oyina" journal, Jadid movement, "Munozara".

Аннотация: В данной статье представлены некоторые размышления о месте и роли идей, выдвинутых джадидами-просветителями, в национальном подъеме студентов и молодежи в Новом Узбекистане. В статье также анализируется деятельность джадидов в период национального подъема, сохранения национальной идентичности и осознания народом своей самобытности, а также их социально-политическая и культурная деятельность. Одновременно изучаются труды таких представителей джадидизма, как А. Авлони, М. Бехбуди, А. Фитрат, в которых отражены усилия по возвышению национальных ценностей, популяризации достижений современной науки и активизации общественной мысли.

Ключевые слова: национальная идентичность, ценности, национальный подъем, журнал "Ойина", движение джадидов, "Мунозара".

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida "uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari"ni "xalqaro maydonda munosib o'rin egallash yo'lida zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan milliy taraqqiyot strategiyamizning ustuvor jihatlari"^[2;304-b]ga aylantirish vazifalari belgilab olingan. Bu jarayonda yoshlarni ma'naviy jihatdan taraqqiy ettirish, ta'lim tizimini isloh qilish, o'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar g'oyalarini ilgari surgan jadid mutafakkirlarining ijtimoiy taraqqiyotga doir qarashlari hamda milliy yuksalishga erishish borasidagi g'oyalarini ta'limda integrativ-kognitiv mezonlar asosida chuqur o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat berishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda olimlar tomonidan jadidchilik g'oyalarini o'rganish, jadid mutafakkirlarining ijtimoiy taraqqiyot, milliy yuksalish, iqtisodiy farovonlik, milliy ma'rifat va maorifni o'stirish masalalariga doir qarashlarini tadqiq etish, shuningdek, jadid pedagogikasining yondashuvlari, metodikasi va tamoyillarini ilmiy jihatdan o'rganish borasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global geosiyosiy vaziyatdagi jarayonlar ta'sirida xalqlarning ong-shuurida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda buning natijasida yosh avlodning milliy tariximizni o'rganishga bo'lgan talabining oshishi, jadidchilik g'oyalarining bugungi kundagi o'zni va rolini namoyon etish borasida 2023-yil Toshkent shahrida "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi ham fikrimiz dalili bo'la oladi. Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning murojaatlari orqali jadid bobolarimiz va ularning bizga qoldirgan merosi haqida ko'plab fikrlar bayon etildi.

Jumladan, "Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'zni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega. Barchamizga ayonki, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'afolat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar" [3:3-b], deb ta'kidladilar. Shunday ekan, biz yoshlarni jadidlar tomonidan qoldirilgan buyuk asarlar va o'gitlar orqali milliy o'zlik hamda qadriyatlarimizni mustahkamlashga undashimiz zarur.

O'tgan asr boshlarida Turkistonni ozod qilish, milliy davlatchilikni barpo etish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish mas'uliyatini o'z zimmlariga olgan jadidlar maydonga chiqdilar. Jadidchilik harakati rus mustamlakachiligiga qarshi milliy-demokratik harakat bo'lib, u o'sha davr Turkistonidagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy hamda madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida esa milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy demokratlar bo'lgan jadidchilik harakatining eng muhim jihatlardan biri milliy ozodlik kurashi mafkurasi va taktikasini o'rganishga qaratilgan edi. Ular Yevropa mamlakatlarining davlat qurilishi va qonunchiligi, Rossiya hamda Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi va demokratik harakatlari mafkurasi hamda strategiyasining teng amaliy jihatlari o'rganib, undan o'z mamlakatlariga mos va to'g'ri keladiganini tanlab oldilar. Natijada milliy ziyolilarning mafkuraviy hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyati kuchayib, jadidlarning ikkiga ajralishiga, ya'ni sof madaniy-ma'rifiy ishlar tarafdorlari hamda ijtimoiy-siyosiy institutlarni isloh qilish, mustamlakachilik va feodalizm kishanlaridan ozod bo'lish tarafdorlariga bo'linishlariga sharoit yaratildi. Atoqli o'zbek olimi va noshiri, adib hamda dramaturg Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan "Oyina" jurnali xalqimiz ongini uyg'otishda, unga o'zligini tanitishda, milliy qadriyatlarni ulug'lashda, zamona ilm-fan yutuqlarini targ'ib etishda hamda ijtimoiy fikrni jonlantirishda katta rol o'ynadi. Jurnal garchi uch yilga yetar-yetmas muddat faoliyat olib borgan bo'lsa-da, uning sahifalarida millat va uning haq-huquqi, tarixiy taraqqiyoti, til va adabiyot masalalari, dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va ularga javoban amalga oshirilayotgan ishlarga doir ko'plab ma'lumotlar chop etildi. Behbudiy: "Millat o'zini anglaganidagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar qatori teng ravishda aralasha oladi", deb yozgan edi [3: 3-b].

Ijtimoiy masalalar Fitrat publitsistikasida ham salmoqli o'rin tutadi. Adib ijodiy merosining muhim qismini tashkil etgan bu publitsistik asarlar o'z vaqtida Turkiston matbuotidagina emas, balki Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz hamda Volgabo'yi matbuoti sahifalarida ham bosilgan. Uning "Bayonoti sayyohi hindi", "Munozara", "Oila" kabi ilk risolalari jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan. Ilk dramatik publitsistikaga mansub hisoblangan "Munozara" zamona zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pallasiga tushib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma'rifat to'g'risida ikki xil qarashga ega bo'lgan ikki kishi – "jadid" va "qadim"ning bahsi asosiga qurilgan edi [4: 131-b].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jadidchi ma'rifatparvarlarning aksari qismi o'tgan asr boshlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma'rifiy o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borib, barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan muammolarga ham e'tibor qaratdilar. Til va yozuv, maktab va bolalarga ta'lim-tarbiya berishni isloh qilish, tarixni o'rganish, oila va nikoh masalalari, milliy qadriyatlarni o'rganish va asrab-avaylash, milliy davlatchilikni shakllantirish kabi muammolar jadidlarni o'ylantirgan asosiy masalalar edi. Bu muammolarni tadqiq etuvchi maqolalar ko'zdan kechirilganda jadidlarning jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar tajribalaridan xabardorligi, ayrim o'rinlarda xarakterli misollar keltirib, o'z fikrlarini dalillashga intilganliklari kuzatiladi [5: 161-b].

Umuman olganda, o'tgan asr boshlaridagi milliy uyg'onish tushunchasi jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi. Ma'rifatparvarlik harakati tabiiy ravishda millatning o'z-o'zini anglashi jarayonini boshlab berdi hamda



yurtimizda millatparvarlik va islomiy tushunchalarning jonlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uyg'onish jarayoni faqat jadid matbuotidagina namoyon bo'lmay, balki ular tomonidan yaratilgan badiiy adabiyotning barcha turlarini qamrab oldi: she'riyatda, nasriy asarlarda va dramatik asarlarda yangi boshlanayotgan davrni xarakterlovchi, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni aks ettiruvchi badiiy adabiyot namunalari paydo bo'ldi. Hamza, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Siddiqiy-Ajziy she'rlari, Behbudiyning "Padarkush", Abdulla Qodiriyning "Juvonboz", "Baxtsiz kuyov", Fitratning "Chin sevish", "O'g'uzxon", "Hind ixtilolchilari", "Temur sag'anasi" kabi asarlari shular jumlasidandir. Jumladan, Fitrat "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari" asarlarida Hindiston xalqlarining erk va Vatan ozodligi uchun ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashlari orqali Turkiston xalqlarining dard-hasratlarini badiiy tasvirlagan.

Adibning "Sayyoh hindi" asarida Buxoroning maishiy-siyosiy turmush manzaralari dunyo ko'rgan bir kishining nigohi orqali tasvirlangan. Yo'l ocherkini eslatuvchi bu asarda muallif eri, suvi va havosi hech qaysi yerga o'xshamaydigan yurti, bu yurtning mehnatkash hamda hunarmand odamlarini ta'riflab, shunday jannatmonand o'lkaning nima sababdan xarob ahvolga tushib qolgani ustida fikr yuritadi. "Fitratning fikricha, asosiy sabab – idora usulining buzuvchi va nobopligi, hokimiyat egalari ilm-ma'rifatdan uzoq ekanligidir. Agar shu Shahrisabz yerlari Yaponiyada bo'lganda edi, zar ekib zar undirar edi. Bu yerlar nega sho'razorga aylangan?" Shu tariqa kitobda iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning asosiy g'ovlari – ishlab chiqarishdagi o'rta asrchilik hamda qonunsizlik ekanligi ta'kidlanadi [6: 366-b].

Jadidlar bular bilan kifoyalanmay, pedagogik asarlarida ham ona Turkiston va unda yashovchi xalqlar tarixi, millatni millat qilib turuvchi omillar, vatanparvarlik va insonparvarlik, axloq hamda tarbiya turlari haqida ma'lumot berishni lozim deb topdilar. Jumladan, Abdulla Avloniy asosiy e'tiborni boshlang'ich sinflarga qaratib, dastlabki saboqlar berishga mo'ljallangan "Birinci muallim" hamda uning uzviy davomi bo'lgan "Ikkinchi muallim" darsliklarini yaratdi. Uning pedagogikaga doir asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi asrimiz boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Muhimi, ularda barchamiz uchun aziz va mukarram bo'lgan muqaddas tuproq, yer va suv, tabiiy boyliklar haqida ham fikr yuritilib, ona Vatan tushunchasining naqadar keng ma'no-mazmunni ifodalashi hamda ularni asrab-avaylash zarurati izohlanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jadidchilik g'oyalarini o'rganish hamda ularning milliy taraqqiyotga erishishdagi o'rne, xususan til, din va qadriyatlar bag'rikengligi hamda o'zaro samimiy muloqotning muhim ahamiyat kasb etishi alohida e'tiborga loyiqdir. Jadid pedagogikasi asosida milliy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlash, milliy taraqqiyotga erishish yo'llari haqida chuqur bilim berishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek ta'lim oluvchilarda jadidlar g'oyalarini sinchiklab o'rganish imkoniyatini yaratish bugungi kunda muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 40.
2. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, № 258 (1047), 2023-yil 12-dekabr.
3. Sharafiddinov O. Abdurauf Fitrat va uning "Hind sayyohi" asari // Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq NMAK, 2004. – B. 96-131.
4. "Oyina" (1914-1915). – Toshkent: Akademiya, 2001. – B. 25-27; "Ovropada Turkiston yoshlari" // Turkiston, 1923-yil 1-yanvar, № 43; "Oyina" (1914-1915). – Toshkent: Akademiya, 2001. – B. 25-27; Munavvar qori. "Jamiyat qanday ochilur?" // Sadoyi Turkiston, 1914, 22-26-son.
5. Qosimov B. Milliy tiklanish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 366.
6. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.
7. Baldauf I. "Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World" // Die Welt des Islams. New Series. Vol. 41, Issue 1. – 2001.
8. Hamroev F. "Yangi asr muammolari" // Tafakkur, 2001, 1-son. – B. 4.
9. Haqqul I. "Shayton nega yig'lagan?" // Meros va mohiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 152-181.
10. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – B. 63.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.